

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi

Oliy ta’lim va fan bo‘limi maxsus ta’lim vazirligi
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

rektori v.v.b

M.Z.Sharipov

01 2023 yil

Buxoro muhandislik-texnologiya institutida 2023 yilda ta’lim sifatini oshirish hamda

ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaxshilash bo‘yicha

YO‘L XARITA

N ^o	Amalga oshiriladigan ishlar	Muddati	Mas’ul
1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2922 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 2022 yil 28 yanvardagi “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 2019 yil 8 oktyabrda PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”, 2018 yil 05 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2021 yil 24 dekabrda Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-son qarorlari ijrosini ta’minlash	Doimiy	Institut prorektorlari, bo‘lim boshliqlari, dekanlar, kafedra mudirlari

2	Instituda professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini oshirishi maqsadida chora-tadbirlarni amalga oshirish	Doimiy	Ilmiy va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, kafedra mudirlari
3	Kafedralarda professor o'qituvchilarning ochiq darslari muhokamasi tashkil etish. Yesh o'qituvchilarni ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida tajribali professor o'qituvchilarga biriktirib "Ustoz-shogird" an'alarini rivojlantirish..	Doimiy	Kafedra mudirlari
4	Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 19 maydagi 312-sonli qaroriga asosan xorijiy tillardan dars beradigan o'qituvchilarning barchasi S1 darajadagi sertifikatga ega bo'lishlariga erishish.	Fevral	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Kafedra mudirlari
5	Kafedralar dars beraetgan professor-o'qituvchilarning kamida 50 foizi V2 darajadagi sertifikatga ega bo'lishlariga erishish.	Sentyabr	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Kafedra mudirlari
6	Professor-o'qituvchilar va talabalarning xorijiy til sertifikatga ega bo'lishlariga erishish maqsadida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish.	Doimiy	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, "Xoriy tillar" kafedrasi mudiri
7	Institutni Hemis tizimida samarali ishlashi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish. Hemis dasturiga qo'shimchalar kiritish maqsadida takliflarni ishlab chiqish va vazirlikka taqdim etish.	Oktyabr	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, dekanlar, kafedra mudirlari
8	O'quv jurnallari bilan ishlashni tugatib, to'liq elektron Hemis tizimida ishlashga o'tish.	Sentyabr.	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, dekanlar, kafedra mudirlari
9	Xalqaro va milliy ilmiy nashrlarda professor-o'qituvchilar, talabalar tomonidan ilmiy maqolalarni chop ettirish.	Doimiy	Ilmiy va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, kafedra mudirlari
10	Institutda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida nizom bilan professor-o'qituvchilar va talabalarni to'liq tanishtirish, seminarlar tashkil etish.	Doimiy	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, dekanlar, kafedra mudirlari, tyutorlar

11	Kredit-modul tizimi ta'lim sifatini oshirishga juda ham qulay tizim bo'lib, tizimda talabalar ishtirokini yanada faollashtirish.	Doimiy	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, dekanlar, kafedra mudirlari
12	Ta'lim sifatini oshirishda muxim bo'lgan mustaqil ish soatlarini talabalar tomonidan sifatli bajarilishini nazoratga olish.	doimiy	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, dekanlar, kafedra mudirlari
13	Ta'lim sifatini oshirish va professor-o'qituvchilar o'rtasida raqobatni shakllantirish maqsadida oliy ta'lim muassasasi kengashi qaroriga asosan talabalarga fan doirasida professor-o'qituvchilarni tanlash imkoniyati berilishini tashkil etish.	Domiy	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, dekanlar, kafedra mudirlari
14	Talabalar o'qishni bitirgandan so'ng ularni bandligini samarali ta'minlab borish maqsadida, ta'limda dual tizimni rivojlantirish.	Doimiy	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, dekanlar, kafedra mudirlari
15	Instituga professor-o'qituvchilarni lavozimlarga faqat konkurs asosida, jamoatchilik kengashi muxokamasi bilan ishga qabul qilinishini kat'iy ta'minlash.	Doimiy	Institut prorektorlari, kafedra mudirlari. Jamoatchilik kengashi
16	Barcha imtixonlarni adolatli, shaffof va insonga e'tibor(sun'iy tusiqlarni yaratmasdan) nuqtai nazaridan tashkil etilishini tashkil etish.	Domiy	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, dekanlar, kafedra mudirlari
17	Ta'lim sifatini oshirish maqsadida Institut saytini boyitish (barcha e'lonlarni berib borish, xisobotlarni qabul qilishni va xokazolar)	Domiy	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, dekanlar, kafedra mudirlari, ATM raxbari
18	Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha shartnomalar imzolash ishlarini jadallashtirish.	Doimiy	Ilmiy va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, kafedra mudirlari, xalqaro bo'lim
19	Iqtidorli talabalarining "El-yurt umidi" jamg'armasi tanlovlarida va boshqa grant loyihalarida ishtirok etishiga ko'maklashish va shart-sharoitlar yaratish.	Doimiy	Ilmiy va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, kafedra mudirlari, xalqaro bo'lim
20	"Ogohlik - davr talabi" mavzuida xuquqni ximoya qilish tashkilotlari bilan birgalikda uchrashuvlar o'tkazish.	Doimiy	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor,

			kafedra mudirlari, tyutorlar
21	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi PF-5729-son Farmoni va Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining 2019 yil 15 iyundagi majlisi bayonnomasi ijrosini ta'minlash maqsadida Oliy ta'lim sohasida «Korruptsiyasiz soha» loyihasini izchil davom ettirish.	Doimiy	Institut prorektorlari, bo'lim boshliqlari, dekanlar, kafedra mudirlari
22	Mutaxassisliklar bo'yicha ARMdagi barcha kitoblarni taxlil qilish va yetishmaydigan adabiyotlar bilan ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish.	Doimiy	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, kafedra mudirlari, moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
23	1-kursga qabul qilingan talabalarni institutdagi mavjud shart-sharoitlarga moslashtirish jarayonini tashkil etish bo'yicha: “1-kurs maktabi” tadbirlarini o'tkazish (dars-mashg'ulotlaridan tashqari vaqtlarda); Talabalikka qabul qilinganlarning ijtimoiy-psixologik portretini shakllantirish; talabalarga tyutorlarni biriktirish, murabbiylarni uslubiy materiallar bilan ta'minlash.	Doimiy	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, bo'lim boshliqlari, tyutorlar
24	Turli tanlov va musobaqalar (fan-ta'lim, badiiy, san'at, ijodiy, sport yo'nalishlari)ga talabalarni jalb etish, g'olib va sovrindor talabalar to'g'risida ma'lumotlar bazasini shakllantirish	Doimiy	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, bo'lim boshliqlari, tyutorlar
25	“Teatr – tarbiya maskani”, “Vatan bo'ylab sayohat” shiori ostida mamlakatimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, yoshlar orasida keng targ'ib etish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'usini mustahkamlash maqsadida “Ajdodlar xotirasi yodimizda” (Adiblar xiyoboni, muqaddas qadamjolarga) “O'zbekiston - jannatmakon diyor”,	Doimiy	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, bo'lim boshliqlari, tyutorlar

	“Baxtlar vodiysi”, “Biz nechun sevamiz, O‘zbekistonni”, “Bunyodkorlik yo‘lida” mavzularida professor-o‘qituvchilar va talabalarining madaniy ekskursiyalarini tashkil etish.		
26	Talaba-yoshlarda Vatanga sadoqat, mardlik va jasurlik fazilatlarini mustahkamlash maqsadida hududda joylashgan harbiy qismlar bilan ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishda “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusida ma‘rifiy ishlarni amalga oshirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev asarlarida vatanparvarlik, Vatanga sadoqat, Vatan kelajagi hamda fan-ta‘lim va bilimga oid fikrlarini o‘rganishga bag‘ishlab talabalar o‘rtasida davra suhbatlari o‘tkazish.	Doimiy	Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, bo‘lim boshliqlari, tyutorlar
27	Talabalar bilan ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi ishlarning tizimli yo‘lga qo‘yish bo‘yicha fakultetlardagi kafedralar, jamoat tashkilotlari, Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti, guruh sardorlari hamda Talabalar turar joylari faoliyati samaradorligini o‘rganish asosida tarbiya bo‘yicha “Ustoz-shogird tizimidagi eng faol kafedra”, “Eng yaxshi guruh murabbiysi”, “Eng namunali Talabalar turar joyi”, “Eng faol ma‘naviyat targ‘ibotchisi” ko‘rik-tanlovlarini o‘tkazish..	Aloxida reja jadval asosida	Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, bo‘lim boshliqlari, tyutorlar
28	Talabalarining ota-onalarini talabalar hayoti va ta‘lim-tarbiya jarayonidagi mavjud muammolari bilan tanishtirish, mazkur muammolarni o‘rganish, aniqlash va o‘zaro hamkorlik asosida mazkur muammolarni hal qilishga erishish, shuningdek ota-onalar va ustoz-murabbiylar o‘rtasida doimiy hamkorlikni ta‘minlash maqsadida barcha akademik guruhlarda “Ota-onalar	Doimiy	Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, bo‘lim boshliqlari, tyutorlar

	bilan mulohotat maydoni ” tadbirlarini tashkil etish.		Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha birinchi prorektor, bo’lim boshliqlari, tyutorlar
29	Institut rahbar kadrlari va pedagogik jamoasi uchun har hafta mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha sohalaridagi islohotlar, xoriyda ro’y berayotgan voqealar, yangi qabul qilingan qonun, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, shuningdek, oliy ta’lim tizimida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va topshiriqlarning mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” mavzuida ma’rifat soatlarini tashkil etish.	Doimiy	
30	OTM hududida shuningdek, veb-saytlar hamda internetdagi sahifalarida: ko’rgazmali tasviriyy-targ’ibot va tarbiyaviy vositalar, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, innovatsiyalar, o’zlikni anglash va vatanparvarlik hamda jismoniy tarbiya, sport va kitobxonlikka oid shiorlar, hikmatli so’zlardan iborat bannerlar, devoriy lavhalar bilan ta’minlanishini tashkil etish.	Doimiy	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha birinchi prorektor, bo’lim boshliqlari, tyutorlar
31	Institut pedagogik jamoasida umummilliy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan: “Rahbar kadrlar, pedagoglar va talabalarning axloqiy sifatleri” mavzusidagi nazariy seminarlarini o’tkazish.	Doimiy	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha birinchi prorektor, bo’lim boshliqlari, tyutorlar
32	Talaba yoshlarning huquqiy savodxonligini aniqlash hamda ularning ta’lim muassasalaridagi amalga oshirilayotgan ishlarga nisbatan daxldorlik tuyg’ularini shakllantirish va faol fuqarolik pozitsiyalarini rivojlantirish maqsadida oliy ta’lim muassasalarida korrupsiyaviy holatlarning kelib chiqish sabablarini o’rganishga qaratilgan sotsiologik tadqiqot o’tkazish va natijalari asosida tahliliy materiallar tayyorlash.	Doimiy	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha birinchi prorektor, bo’lim boshliqlari, tyutorlar

33	Talabalar turar joylarida “Biz ommaviy madaniyat”ga qarshimiz , “Vatanimiz ravnaqi yo’lida xalqimizga kamarbastamiz” , “Diniy bag’rikenglik ota-bobolarimizdan meros bo’lgan milliy qadriyat” kabi mavzularda uchrashuvlar, davra suhbatlarini o’tkazish.	Doimiy	Yoshlar ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha birinchi prorektor, bo’lim boshliqlari, tyutorlar
34	“Korrupsiyasiz hayot” aksiyasini o’tkazish. Aksiya doirasida: “Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi” mavzusida targ’ibot tadbirlari, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari ishtirokida vebinar davra suhbatlari va tanlovlar tashkil etish.	Doimiy	Yoshlar ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha birinchi prorektor, bo’lim boshliqlari, tyutorlar



Ta’lim sifatini nazorat qilish bo’lim boshlig’i

Yu.S.Beshimov